



**MOBIUZ
ЗАПУСТИЛ
5G
В ТАШКЕНТЕ**
5-стр.



**ANDROID-
SMARTFONLARDA
YO'LDOSHLI ALOQA
PAYDO BO'LADI**
6-bet.



**DASTYOR
PLATFORMALAR**
8-bet.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqa boshlagan

Xabar

ERUR SEN SHO'H, AGAR OGOHSEN SEN,
AGAR OGOHSEN SEN, SHOHSEN SEN.

**36 (1562)-son
9-sentabr
2022**

@xabaruzofficial
facebook.com/xabar.uz/
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

www.xabar.uz

TATUda MUSTAQILLIK DARSLARI TASHKIL ETILDI

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ham ustoz va talabalar uchun o'z quchog'ini ochdi. Universitet rahbariyati erta tongdan talabalarni kutib oldi. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida professor-o'qituvchilar tomonidan mustaqillik darslari tashkil etildi.



LITIY QAZIB OLUVCHI YETAKCHI MAMLAKATLAR (tonna)

(Litiy – smartfonlar uchun akkumulyatorlar tayyorlashda asosiy xom ashyolardan biri)

1. Avstraliya – 55 000
2. Chili – 26 000
3. Xitoy – 14 000
4. Argentina – 6 200
5. Braziliya – 1 500
6. Zimbabve – 1 200
7. Portugaliya – 900



Manba: U.S. Geological Survey



GAP – IT SOHADA AYOLLAR KLUBINING IKKINCHI UCHRASHUVI BO'LIB O'TDI

Xabaringiz bor, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va IT-Park hamkorligida jamiyatda xotin-qizlarimizning o'rnini, bilimni oshirish, bandligini ta'minlash, dunyoqarashini kengaytirish, qiziqish va layoqatiga qarab yo'nalish tanlashga ko'maklashish hamda ularga motivatsiya berish maqsadida "GAP" ayollar IT-klubi loyihasi muvaffaqiyatli ish boshladi. Joriy yilning 31 avgust kuni loyihaning ikkinchi uchrashuvi o'tkazildi.




Tadbir

TSHIuda "INTERNATIONAL IDEATHON CENTRAL ASIA 2022" O'TKAZILADI

2022-yilning 9-11-sentabr kunlari Toshkent shahridagi INHA universiteti tomonidan talabalar uchun "International Ideathon Central Asia 2022" uch kunlik oflayn tadbiri o'tkaziladi. Tadbir Toshkent shahridagi INHA universiteti va SAP hamkorligida tashkil etilmoqda.

Ushbu tadbir talabalarga kompaniyalar duch keladigan turli muammolarni yechimi bo'yicha aralash jamoalarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tadbir davomida ishtirokchilar Stenford Dizayn fikrlash usuli hamda SAP platformasi yechimlari bilan tanishadilar va bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar.





Jumadan
Jumagacha

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida davlatimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag‘ishlangan bayram shodiyonasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, xalqimizni bu ulug‘ ayom bilan tabrikkladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2 sentabr kuni Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo‘ydi. Xotira tadbirida Islom Karimovning xalqimiz manfaati yo‘lidagi xizmatlari yodga olindi. Qur‘on tilovat qilindi. Shunday tadbirlar Samarqand va Qarshi shaharlarida ham o‘tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5 sentabr kuni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqarorligini ta‘minlash va zaxirasini yaratish chora-tadbirlari bo‘yicha video-selektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga talab hududlar kesimida tahlil qilinib, ichki imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6 sentabr kuni Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi. Ikki mamlakat Prezidentlari O‘zbekiston-Qozog‘iston yaxshi qo‘shnchilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida amaliy sheriklikni kengaytirishning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7 sentabr kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlarining Favqulodda va Muxtor elchisi Deniel Rozenblyumni qabul qildi. Davlatimiz rahbari Deniel Rozenblyumning O‘zbekiston – AQSH strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdagi hissasini qayd etdi.

Matbuotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon e‘lon qilindi.

SHHT MAMLAKATLARI EKSPERTLARI AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH MASALALARINI MUHOKAMA QILDI

6-sentabr kuni Toshkentda Shanxay hamkorlik tashkilotining axborot xavfsizligi bo‘yicha ilmiy-ekspert forumi bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi bilan hamkorlikda o‘tkazildi.

Xorijiy ishtirokchilarni onlayn ulash orqali g‘ibrid formatda tashkil etilgan axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha muloqotda SHHTga a‘zo davlatlarning tegishli vazirlik, idoralari, ilmiy-akademik va tahliliy doiralari vakillaridan iborat 30 nafardan ziyod yetakchi ekspertlar qatnashdi.

Tadbirda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov onlayn ishtirok etdi.

Mazkur forumni o‘tkazish tashabbusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 17-sentabr kuni SHHTning Dushanbe sammitida ilgari surilgan edi.

Xususan, pandemiya axborot makonida kiber jinoyatlar keskin ko‘payishiga olib keldi. Ekspertlar fikricha, 2021 yil dunyoda kiber hujum soni 2020 yildagiga nisbatan 50 foiz ortib, kiber jinoyatdan ko‘rilgan zarar 2015-yildagi 3 trillion dollardan 6 trillion dollarga o‘tdi.

Salbiy tendensiyalar SHHTga a‘zo mamlakatlardan kiber makonni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta‘minlashga kompleks yondashuvlar ishlab chiqishni talab etadi.

2021-yil SHHTning Dushanbeda o‘tgan yubiley sammiti yakuni bo‘yicha O‘zbekistonning faol ishtiroki asosida ishlab chiqilgan 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan xalqaro axborot xavfsizligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha SHHT mamlakatlarining birgalikdagi harakatlari rejasini tasdiqlangan.



Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Prezidentining ushbu forumni o‘tkazish bo‘yicha o‘z vaqtida ilgari surgan muhim tashabbusi ishtirokchilarga axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi xavf-xatarlarga qarshi kurashishga oid yagona siyosatni shakllantirish bo‘yicha aniq takliflar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, SHHT mamlakatlari fuqarolari axborotdan erkin va hech qanday to‘siqsiz foydalanishini ta‘minlash bo‘yicha umumiy yondashuvlarni kelishib olish imkonini berdi.

Ayni keng qamrovli masalalarni ko‘rib chiqish uchun forum kun tartibi 3 mavzu-ga oid sessiyaga bo‘lindi:

1. Axborotdan foydalanish ko‘lamini kengaytirish – zamonaviy jamiyatni rivojlantirishning muhim omili.

2. Axborot-g‘oyaviy xatarlar va bunday tahdidlarga qarshi samarali javob choralarni ishlab chiqish.

3. AKT jadal rivojlanishi sharoitida nozik axborot infratuzimini ob‘ektlarini himoya qilish.

Umuman, mazkur tadbir mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va SHHTga a‘zo davlatlarning axborot va kiber makondagi xatarlarga qarshi kurash borasidagi salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Tadbir

GAP – IT SOHADA AYOLLAR KLUBINING IKKINCHI UCHRASHUVI BO‘LIB O‘TDI

buyurtmalar va ularning sonini mustaqil ravishda tanlashi mumkin.

Klubning asosiy vazifalaridan biri ham ayollarning IT-sohasidagi savodxonligini oshirish va networkingni (o‘zaro muloqot) rivojlantirishdan iborat. Klub tashabbuskorlarining maqsadi esa IT-sanoatda ayollar tanqisligi muammosini tugatish, IT-kasblarini ayollar va qizlar uchun ochiq va qiziqarli qilishdan iboratdir. Ushbu loyiha birinchi uchrashuvdayoq muvaffaqiyatli start olgandi. Loyihaning bu galgi hamkori sifatida esa – Dlux Dance Studio ishtirok etdi.

Etirof etish kerakki, hozirda klubning eng yosh a‘zosi 16 yoshda, eng yoshi katta a‘zosi esa 55 yoshda. Bundan tashqari, klub a‘zolari turli soha vakillaridan iborat. Aynan siz ham “GAP”da ishtirok etishingiz uchun na yoshingiz, na kasbingizda chegara yo‘q.

“IT-sanoatning rivojlanishi odamlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Endi masofadan turib ishlash imkoniyati ham mavjud, bu ayniqsa ayollar uchun juda qulay va yaxshi. Endilikda ular yudan chiqmasdan pul topishlari va o‘qishlari mumkin, ular karera va kundalik hayotni muvaffaqiyatli birlashtiradilar”, – deydi startap asoschisi Nigora Akilova.

Ta’kidlash kerakki, uchrashuv davomida klub a‘zolari o‘z networkinglarini rivojlantirish va IT-mutaxassislari bilan muloqot qilish, o‘z savollariga spikerlardan javob olish, bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Loyihaning keyingi uchrashuvlari viloyatlar kesimida o‘tkazilishi ham rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, “GAP” ayollar IT-Klubi bo‘ljak ishtirokchilar uchun qator qulayliklar yaratdi. Endi ishtirokchilar klubning rasmiy sayti – <https://it-gap.uz/> orqali bo‘ljak tadbirlari va loyihaning so‘nggi yangiliklari bilan tanishishlari, shuningdek, o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan holda izoh qoldirishlari va yangi uchrashuvlarga ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin bo‘ladi.

AMAZONga DASTURCHI SIFATIDA ISHGA KIRGANIM HAQIDA



Men Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetini tamomlaganman. Universitetda o'qigan paytim "Global Solutions", "Shift Technologies" va "Newmax" kabi kompaniyalarda ishlaganman. Bitirganimdan so'ng esa "Super Dispatch" kompaniyasida 3 yilcha mehnat faoliyatimni olib bordim.

2019-yil oxirida u "Delivery Hero" kompaniyasida ishlash uchun Germaniyaga ko'chib o'tdim. Qariyb ikki yildan keyin Anaconda kompaniyasida faoliyat boshladim.

Yaqinda bir necha bosqichli tanlovlardan muvaffaqiyatli o'tib Amazon'dan ish taklifini oldim.

2 yilcha oldin ham Amazon'ga topshirib rad javobi olganman. Odatda, intervyular tugagandan so'ng, agar ular yozgan elektron xabar "Thank you..." bilan boshlansa demak rad javobini berishgan bo'ladi.

Yaqinda yana topshirib ko'rdim. Bu safar ham ular yozgan email "Thank you..." bilan boshlandi. Lekin keling boshidan nima bo'lgani haqida aytib beray.

Intervyuga taklif



(He/Him) • 4:55 PM

Software Engineer @AWS across Europe

Hi Jahongir,

Steffen from AWS here. How are you doing right now?

I currently look after Software Engineer hiring for AWS across Ireland, Germany, Poland and the UK. Basically, all

Bu safar ham LinkedIn'dan o'zlari yozishdi.

(menimcha Hard masalani ham juda yaxshi yechganim uchun) bu bos-

Tayyorlanishga vaqt kerak, dedim. 6 oycha tayyorgarlik qilib o'zim shu bolaga qayta yozdim. Ertasi kuni Online Assessment uchun topshiriqlar yubordi.

Online Assessment

Bu bosqichda Codility platformasi (yoki shunga o'xshash platformada. Aniq eslay olmayapman. Email'ni ham topa olmadim) 2ta masala jo'natishdi. Birinchisi osonroq Medium darajasidagi savol edi. Ikkinchisi esa LeetCode'dagi Hard masalalaridan biri edi. Birinchisini osongina yechdim. Ikkinchisi Hard bo'lgani uchun ozgina qiyinadi. Lekin bunday masalalarni oldin yechib ko'rgan edim. Shuning uchun 30-40 daqiqacha ichida yaxshi yechim topa oldim.

Phone Screen

Hi Jahongir,

My name is Ilana, I'm one of the Technical Recruiters here at AWS; and I will be helping you in the process moving forwards.

Second, thank you for taking the time to complete the online assessment. We have reviewed your answers and based on your high scoring, we will be pushing you straight through to the Virtual On-Site interview stage!

Online Assessment'dan o'tganingizdan keyin odatda Phone Screen degan bosqich bo'ladi. Bu bosqichda odatda bitta masala va Amazon'ning Leadership Principles'lariga asoslangan savollar tushadi. Lekin OAda juda yaxshi natija ko'rsatganim uchun

qichni umuman tashlab o'tib oxirgi bosqichga jo'natib yuborishdi:

Menga bu gapingiz juda yoqdi deb javob qaytarvordim.

On-Site. Oxirgi bosqich

Bu oxirgi bosqich 4ta intervyudan tashkil topgan. Har bittasi taxminan 1 soat davom etadi. Har birining formati juda o'xshash: Leadership Principles + Technical questions. Texnik savollari LeetCode masalalari yoki System Design bo'lishi mumkin.

1. Birinchisida Leadership Principles va LeetCode Medium savol tushdi. Mazzusi Array va HashMap edi. Yaxshi yechim bera oldim.

2. Ikkinchisida Leadership Principles va System Design bo'ldi. 40 daqiqani Leadership Principles'ga

sarfladik. Oxirgi qolgan 20 daqiqada esa ular mendan Google Maps'ni System Design qilishimni so'rashdi. Bir balo qilib Design qilishga harakat qildim.

3. Uchinchisida Leadership Principles va Leetcode Medium savol tushdi. Yaxshi yechim bera oldim.

4. To'rtinchisi eng qiyini bo'ldi. Leadership Principles va LeetCode Medium tushdi. Lekin mavzusi "Backtracking" edi. Tayyorlanayotganimda qiynalgandim shu mavzuda. Lekin shu qiynalganlarim foyda beribdi. Juda zo'r yechim berdim. Time complexity va space complexity haqida aytib berdim. Backtracking yechganlar bilishadi, time va space complexity hisoblash sal murakkab masala bu mavzuda.

Shu bilan intervyular tugadi. 4-5 kunda javobi chiqishini aytishdi.

Natija

4-5 kundan so'ng qandaydir notanish raqamdan qo'ng'iroq keldi. Olmadim. Keyin "Amazon bo'lishi mumkin" degan xayol keldi. Raqamni Google qilsam rostdan ham Amazon'ning Berlindagi ofisi raqami ekan. Qaytarsam olishmadi. 1-2 soatlardan keyin yana qayta telefon qilishdi o'zlari. Suhbatning birinchi qismi quyidagicha o'tdi:

- "Hello?"

- "Hi. Am I talking to Jahongir Rakhmonov?"

- "Yes"

- "This is Somebody from Amazon. First of all, thank you very much for applying to Amazon Web Services".

Tamom. Bu safar ham o'xshamadi shekilli. Chunki o'tgan safar ham shunday bo'lgandi. Mayli, suhbatni davomini aytay.

- "Second of all...Congratulations!!! Your interviews went very well and the team is very excited to have you onboard" desa bo'ladimi. Ichimda yurakni yordingku dedim. Ammo minnatdorchilik bildirdim.

Xullas, hammasi yaxshi o'tdi.



Jahongir RAHMONOV

Tahririyatdan: Vatandoshimizni ushbu muvaffaqiyati bilan tabriklab, kelgusi ishlarida ham zafarlar tilaymiz.

SAFARDAN YANGILANIB, YASHARIB QAYTDIK

“O‘zbektelekom” AK Farg‘ona filiali rahbariyati hamda filial kasaba uyushmasi qo‘mitasi ishchi-xodimlarni Avval qishlog‘iga sayohatini tashkillashga kelishilgan edi. Shunga ko‘ra har shanba kuni belgilangan. 2-3ta telekommunikatsiya bog‘lamalarning jamoalari a‘zolari mazkur qishloqdagi “Ettibuloq” oromgohida dam olmoqdalar, nafaqat dam olmoqdalar, balki qishloqning aziz joylari ziyoratida bo‘lmoqdalarki, bu manzilda o‘tgan tongdan oqshomgacha bo‘lgan vaqt umrga tatigulik ma‘no kasb etmoqda.

S hunisi taxsinga sazovorki, bu Sezgu ish o‘z navbatida ichki turizmni rivojlantirishga hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Albatta dam olishda ham dam olish bor. Kimdir oromgohga oshnalari bilan kelib osh yeb, hangomalashib ketishni dam olish deb bilsa, kimdir bu betakror go‘zalikdan, muqaddas qadamjoldan o‘zgacha bahra oladi. Shuning uchun ham ota-bobolar yurgan daryo-o‘tirgan bo‘yra, deganlar. Axir har kuni ham bunday yoqimli safarlarga chiqish nasib bo‘lavermaydi. Har kunimiz esa g‘animat. Qolaversa, uy-ro‘zg‘or va ish tashvishlarini bir zungina chetga qo‘yib, hayotning sarhisob qilish, do‘stlar bilan diydorlashish uchun ham shundayin sayohatlar kerak.

Avval qishlog‘i boshqa qishloqlarga nisbatan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Uning tarixiy yodgorliklari ham juda qadimiydir. Xo‘sh, nima uchun qishloq nomi Avval? Mahalliy aholi Avval nomini Rabial Avval (Abdul Avval ham deyiladi) nomi bilan ham bog‘laydi. Yana bir boshqa fikrga ko‘ra, bu yerlarga suv olib kelish maqsadida Oloy tog‘ tizmalaridan oqib tushuvchi Isfayramsoy yo‘nalishini o‘zgartirishgan. Natijada Avval atrofidagi yerlar birinchi

bo‘lib, ya‘ni avval sug‘oriladigan bo‘lgan. Shu sabab joy nomi Avval deb atala boshlangan. Ha, bunday taxminlar ko‘p.

Qo‘qon xonligi davriga kelib, qishloq xonlikning diqqat markazida turgan. Xudoyorxon Avvalga bir necha marotaba kelgan. Boisi strategik ahamiyatga ega markazlardan biri bo‘lgan. Ukasi Marg‘ilon begi Sulton Murodbek qishloqda o‘rda qurilishini boshqargan.

Telekomchilar avvalo Xojam Podshoh maqbarasini ziyorat qildilar. Qur‘on tilovat qilindi. Ziyoratgoh xizmatchisi Shuhrat To‘lanov maqbara haqida va Xojam Podshoh arxeologik yodgorligi, Xojam Podshoh haqida qisqacha ma‘lumot berdi. Xojam Podshoh o‘zi kim bo‘lgan? Uning asrlar bo‘yi e‘zozlanib kelayotganining siri nimada? Avvalo siri shundaki, u islom va tasavvuf ilmining yirik targ‘ibotchisi, shu ilmning rahnamalaridan biri, Mahdumi A‘zamning avlodi, asli ismi Hidoyatullo bo‘lgan Ofoq “Yorug‘lik egasi” deya hurmatlangan (1625-1695) ulug‘ zotdir. Shohimardonga – Hazrat Ali mozoriga ketayotgan har bir ziyoratchi Avval qishlog‘idagi Xojam Podshoh (Xojam podshoh) muqaddas mozorlarni ziyorat qilishi zarur bo‘lgan. Aytishlaricha, XIX asr o‘rtalarida, Avvaldagi



tepalik ustiga mahalliy xalq kuchi bilan maqbara qurilib, ul ulug‘ zotning ramziy qabrlarini qo‘yishgan ekan. Maqbara XX asrning 40-yillarigacha asralgan, biroq o‘sha davr siyosati oqibatida buzib yuborilgan. 1960 yillarga kelibgina, Xojam Podshoh qabri ustiga kichikroq ko‘rinishdagi hujra-qabr qurilgan. Hozirgi kunda qad ko‘tarib turgan maqbara esa, 1990-yillarda

eski maqbara o‘rnida qayta qurilgan. Xojam Podshoh mozori sharofati bilan mazkur ziyoratgoh joylashgan arxeologik yodgorlikni ham saqlab qolingani e‘tiborga molikdir. Aholi ushbu qadamjoni Ofoqko‘ja nomi bilan yuksak qadrlasa-da, lekin aslida bu makonda ul zotning o‘g‘li (XVIII asrning boshlarida yashab o‘tgan) Xoja Hasan nomi bilan bog‘liq. Munosib o‘g‘il otasi kabi islom ilmining targ‘ibotchisiga bo‘lib qolmay, Farg‘ona vodiysi zaminidan qalmoqlarni quvib chiqarishda yisarat ko‘rsatgan milliy qahramon sifatida mehr qozongan. Ha, xalq o‘z qahramonlarini unutmaydi.

Uchko‘prik, Rishton, Oltiariq telekommunikatsiyalar bog‘lamalari ishchi-xodimlari Hamza uy muzeyini ham ziyorat qildilar.

– Bu kun aziz joylar ziyorati, do‘stlar diydorlashuvi bilan yodimizda qoladigan bo‘ldi. Ajoyib ziynatli kunni bizga tuhfa qilgan rahbariyatimizga va filial kasaba uyushmasi qo‘mitamizdan benuhaya minnatdormiz. Uchta bog‘lama jamoalari bilan diydorlashuv juda boshqacha shukuhli bo‘lar ekan. Safardan yangilanib, yasharib qaytdik, desam, ishonaverim, – dedi Rishton TB elektromexanigi Mahsudaxon Ergasheva. – Men shaxsan boshim yerga tekkuncha ta‘zimdaman.

Darhaqiqat, ko‘ngil olmoq, ko‘ngil topmoq uchun dunyoga kelganmiz. Komil insonlik fazilatlaridan biri ham shu!

Hafiza SALYAHOVA,
“Xabar”ning
Farg‘ona viloyatidagi muxbiri

“KELAJAKDAGI RIVOJLANISH BUNDAN HAM SHIDDATLI BO‘LISHI TABIIY”

– deydi aloqa sohasida yigirma uch yillik tajribaga ega Shukrullo JALILOV



Sohaning o‘tmishidan juda yaxshi xabardor, bugungi taraqqiyotida ham munosib hissa qo‘shib kelayotganlardan biridir.

– Avvalo, aytishim kerakki, mamlakatimizda nafaqat aloqa sohasida, balki barcha sohalarda, tizimlarda o‘zgarishlar, rivojlanishlar izchil olib borilyapti. Ayniqsa, istiqoligacha bo‘lgan davr bilan solishtirganda yer bilan osmoncha farqni sezaman, – deydi Shukrullo Jalilov. – Oddiy misol, bir paytlar qaysidir boshqa tashkilotga yoki viloyatga faks jo‘natmoqchi bo‘lsak, markaziy telegrafga borishimizga to‘g‘ri kelardi... Hozirchi? O‘zingiz ko‘rib turib, kompyuterlar bugun oddiy televizordek gap – har bir xonadonda, ish joyida bor. Hali tuzukroq gapirishni bilmagan bola ham bermalol u bilan tillasha olyapti. Kelajakdagi rivojlanish bundan ham shid-

datli bo‘lishi tabiiy. Chunki, aloqa sohasini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaralyapti. Sababi oddiy: bugungi zamonaviy dunyodagi boshqa barcha sohalarning taraqqiyoti aynan bizning soha rivojiga bog‘liq. Qaysiki soha o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalansa, o‘sha soha albatta rivojlanadi. Bu dunyo tajribasida isbotlangan.

Shukrullo Jalilov 1984-1994 yillar tumandagi 3-sonli maktabda tahsil olgan. Maktabni tamomlab Qarshi sanoat litseyida o‘qidi. O‘qishni muvaffaqiyatli tugatib, ilk mehnat faoliyatini Qarshi shahar hokimligida mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘limida mutaxassislikdan boshladi. 1997-1999 yillar “KashTEKS” XJ EHM operatori sifatida faoliyat yuritdi. 1999 yildan “O‘zbekiston pochta” AJ Qashqadaryo filialida EHM operatori, 2003-2005 yillar Qarshi shahar “Internet kafe” bo‘limi boshlig‘i, 2005-2011 yillar filial direktori yordamchisi-bosh mutaxassis, 2011-2012 yillar filialning Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, 2012 yildan

filialning 2-toifali mutaxassis vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, 2021 yilning fevral oyidan filial kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi vazifasida ham faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Pochta aloqasi sohasining rivojlanishida faollik ko‘rsatgan va o‘zining samarali mehnatlari bilan munosib hissa qo‘shib kelayotgan rahbar xodimlar, mutaxassislar va ommaviy kasb egalari bir guruhi “O‘zbekistong pochta” AJning “Faxriy yorlig‘i” bilan mukofotlandilar. Ular orasida “O‘zbekiston pochta” AJ Qashqadaryo filialining 2-toifali mutaxassis Shukrullo Jalilov ham bor. Yaqinda filialda bayram tadbiri o‘tkazilib, “Faxriy yorlig‘i” tantanal ravishda topshirildi. Yig‘ilganlar Sh. Jalilovning ko‘p yillik samarali mehnati haqida so‘z yuritib, mukofot bilan tabriklandi.

Aftondil ISMOILOV,
“Xabar”ning
Qashqadaryo viloyatidagi muxbiri

VOLEYBOL BO‘YICHA OSIYO KUBOGIDA HAMYURLARIMIZ BRONZA MEDALINI QO‘LGA KIRITDI



Joriy yilning 29-avgustidan 4-sentyabriga qadar Qirg‘iziston Respublikasining Cho‘lpon-ota shahrida AVC (Osiyo voleybol konfederatsiyasi) doirasida tashkil etilgan “Men’s Challenge Cup” xalqaro turnirida UZTELECOM jamoasi sportchilaridan tashkil topgan O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Jamoa Osiyo kubogida bronza medali bilan taqdirlandi.



MOBIUZ ЗАПУСТИЛ 5G В ТАШКЕНТЕ

Mobiuz запустил 5G в Ташкенте — сеть пятого поколения от мобильного оператора доступен для коммерческого использования в восьми локациях города.



5G доступен в следующих локациях: Мирабадский р-н, окрестности станции метро "Ойбек", а также ТРЦ Royntax; Мирзо-Улугбекский р-н, окрестности отеля Le Grand Plaza (бывш. "Тата"); Юнусабадский р-н, территория центрального офиса Mobiuz, а также окрестности бизнес-центра Royntax; Шайхантахурский р-н, территория торгового центра Fleshka (бывш. "Малика"); Чиланзарский р-н, территория рынка Chilonzor buyum bozori (бывш. "Абу Сахий") и окрестности Ташкентского государствен-

ного экономического университета, около Tashkent City.

Уже в ближайший месяц планируется внедрение 5G еще в нескольких локациях в Ташкенте.

НА ЕПИГУ ПРЕДУПРЕДИЛИ О ТРУДНОСТЯХ С ГОСУСЛУГАМИ ДЛЯ ВОДИТЕЛЕЙ

Пресс-служба ЕПИГУ сообщила о возможных сбоях при получении услуг, связанных с авто- и мото- транспортом.



Проблемы возникают при использовании следующих услуг: заявка о замене водительского удостоверения на документ нового образца; оформление разрешения на тонировку окон авто; онлайн-оформление доверенности на управление авто.

Неполадки вызваны техническими причинами, отмечается в сообщении. Служба безопасности дорожного движения МВД переводит системы учёта автотранспорта и водительских прав на новую автоматизированную платформу.

Специалисты МВД работают над устранением возникающих проблем. Дополнительную информацию обещали предоставить по завершении работ.

САМАРКАНДСКИЙ АЭРОПОРТ ПЕРВЫМ В УЗБЕКИСТАНЕ ЗАПУСТИЛ СИСТЕМУ E-GATES

В аэропорту Самарканда после тестирования заработала электронная система пограничного контроля (E-gates). Об этом сообщили в компании Air Marakanda.



Комплекс разработан компанией Metall Center по заказу Пограничных войск СГБ. Он обеспечит быстрое и безопасное прохождение паспортного контроля для прибывающих пассажиров. Система автоматически проводит идентификацию путешественников на основе биометрических данных, с минимальным участием человека. В комплекс входят сканеры документов, а также видеокamеры высокого разрешения.

Ускорение паспортного контроля, в свою очередь, поможет нарастить туристический потенциал Самарканда. Новая технология также сократит вероятность ошибок вследствие человеческого фактора, подчеркнули в погранслужбе.

Самаркандский аэропорт стал первой воздушной гаванью страны, внедрившей E-gates. Отмечается, что комплекс можно применять и на автомобильных, пешеходных или водных пунктах прибытия.

В НУР-СУЛТАНЕ СОСТОИТСЯ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ИТ-ФОРУМ DIGITAL BRIDGE



28-29 сентября в Нур-Султане будет проводиться Международный технологический форум Digital Bridge 2022.

Это одно из крупнейших мероприятий в IT-сфере Казахстана, проводимое ежегодно. В нём участвуют лидеры технологической индустрии, эксперты и профессионалы в сфере цифровых технологий, представители IT-компаний, стартапов, венчурных инвесторов и госорганов.


Тема Digital Bridge в текущем году — "Центральная Евразия как новая технологическая платформа". Программа события включает в себя выставку технопарков из стран Центральной Азии и Организации тюркских государств.

В рамках форума состоится Startup Alley — шоу IT-стартапов из Центральноазиатских и тюркоязычных стран. В ней могут принять участие и проекты из Узбекистана.

Также стартапы из Узбекистана смогут побороться за денежные призы на Astana Hub Battle. Команда должна максимально быстро и сжато представить свой проект жюри.

Победитель конкурса получит \$10 000 на развитие проекта. Награда за второе место составит \$5000, за третье — \$3000.

WINDOWS ПОМЕТИЛА GOOGLE CHROME КАК ВИРУС




Накануне пользователи начали массово жаловаться на неадекватное поведение встроенного в Windows антивируса — он определял Google Chrome как вирус.

Более того, под удар "Защитника Windows" попали в целом все приложения на основе Chromium. В Microsoft уже признали проблему, заявив, что защитное ПО идентифицировал как потенциально опасные все приложения, основанные на базе Chromium и платформе JavaScript Electron.

На данный момент лучшим способом решить проблему — обновить "Защитник Windows" до версии 1.373.1537.0. Если у вас это не получается, то единственным вариантом будет удалить официальные версии программ, помеченных как вирус.

Напомним, что среди пострадавшего софта был не только Chrome, но также WhatsApp, Discord и Spotify.

КАБЕЛИ USB-C БУДУТ РАЗГОНЯТЬСЯ ДО 80 ГБИТ/С С НОВЫМ USB4 2.0



USB Promoter Group анонсировала версию 2.0 спецификации USB4, обещающую передавать данные со скоростью 80 Гбит/с.

Детали будут представлены ближе к презентации для разработчиков, запланированной на ноябрь.

80 Гбит/с — это высокая скорость, но она не предназначена для использования только в одном соединении. Планируется распределить 80 Гбит/с между различными устройствами, подключенными к концентратору или док-станции.

ИТ-ПРАВО. КАК СОЗДАТЬ КЛЮЧ ЦИФРОВОЙ ЭЛЕКТРОННОЙ ПОДПИСИ?


Вопрос: как создать ключ цифровой электронной подписи?

Ответ: этот вопрос урегулирован Законом Республики Узбекистан "Об электронной цифровой подписи". Как указано в статье 9, создание закрытых и открытых ключей электронной цифровой подписи может осуществляться юридическими и физическими лицами или по их обращению центром регистрации при помощи средств электронной цифровой подписи.





ANDROID-SMARTFONLARDA YO'LDOSHLI ALOQA PAYDO BO'LADI



Google kompaniyasi Android amaliy tizimining navbatdagi 14-talqini yo'ldoshli aloqani qo'llashi haqida bayonot berdi. 9to5Google xabariga ko'ra, ushbu funktsiya ta'minoti bilan SpaceX fazoviy kompaniyasi va T-Mobile uyali aloqa operatori shug'ullanadi.

Google kompaniyasining platformalar va ekotizimlar bo'yicha katta vitse-prezidenti Hiroshi Lokhaymer ayni paytda Android jamoasi ishlanma ustida izlanayotganini ma'lum qildi. Yo'ldoshli aloqa Android 14da 2023-yilning o'rta-ularida yoki oxiriga borib paydo bo'ladi.

Yo'ldoshli aloqada ulanish tezligi LTE va 5Gga nisbatan pastroq bo'ladi, dedi Lokhaymer. SpaceX rahbari Ilon Mask ta'kidlashicha, yo'ldoshli aloqa, matnli xabarlarini istisno qilganda, bir paytning o'zida mingtadan ikki mingtagacha ovozli aloqani qo'llashga qodir.

Yo'ldoshli aloqa birinchi galda favqulodda vaziyatlarda, xususan, uyali aloqa signallari yo'q "o'lik zonalar"dan aloqaga chiqish uchun kerak bo'ladi.

14 YOSHLI BOLA TANGADAGI SHIFRLARNI BIR SOAT ICHIDA O'QIQI OLDI



Avstraliya tashqi razvedka xizmatining kibernetika agentligi (Avstraliya signallar boshqarmasi — ASD) 75 yilligi munosabati bilan 50 sentlik esdalik tangalarini chiqargandi. Tangada aks etgan shifrlarni buza olganlarni Avstraliya tashqi razvedkasi ishga olishga va'da bergandi.


Tobora murakkablashib boruvchi to'rt bosqichli kodni tasmaniyalik (Avstraliyadagi orol) 14 yoshli o'g'il bola buzishga muvaffaq bo'ldi. ASD bosh direktori Rachel Noubning aytishicha, bola bu ishni uddalash uchun bir soatdan sal ko'proq vaqt sarflagan.

"Xoh ishoning, xoh ishonmang, tasmaniyalik 14 yoshli bola barcha to'rt

bosqich shifrlarini to'g'ri topgan birinchi inson bo'ldi... Ishonish qiyin. O'zingizni uning onasi o'rniga qo'yib ko'ring-a? Biz tez orada u bilan ko'rinish va ishga yollashga umid qilamiz", — dedi Noub.

OLIMLAR PLASTIKNI OLMOSGA AYLANTIRISHDI

Germaniya va AQSh olimlari hamkorlikda laboratoriya sharoitida plastikdan olmos zarralari olishga muvaffaq bo'lishdi, deb yozdi Science Advances. Zarralarni tezlatgich yordamida ushbu natijaga erishildi.



Avvalroq ekstremal bosim va yuqori haroratda sayyora yuzasidagi uglevododlar olmoslarga aylanishi ma'lum bo'lgandi. 1970-yillarda olimlar Neptun va Uran kabi sayyoralarda qimmatbaho toshlar bulutlarda hosil bo'lishi va "olmos yomg'iri" ko'rinishida yog'ishini taxmin qilishgandi.

2017-yilda tadqiqotchilar polistiro olmosga aylanishi mumkin bo'lgan

sayyora sharoitini yuzaga keltirishgandi. Navbat oddiy plastikka yetib keldi — endi undan qimmatbaho toshlar yasash mumkin.

BILL GEYTSNING SEVIMLI O'YINLARI

Microsoft hamamoschisi, dunyoning eng boy insonlaridan biri Bill Geys kompyuter o'yinlari ishqibozi, O'zi bunga iqrar bo'ldi.

Geysning aytishicha, Wordle o'ynamasa turlmaydi. Bu berilgan so'zni har kuni topish shart bo'lgan boshqotirma. Geys yaxshiroq o'ynash uchun hatto o'z strategiyalarini ishlab chiqqan. U unilari ko'p so'zlardan o'yinni boshlashni maslahat berdi.

Bundan tashqari, Geys bo'sh vaqtda Quordle, Octordle, Nerdle kabi o'yinlarni ermak qilib turadi, Quordle beshta harfdan bir paytning o'zida to'rt xil so'zni



topish kerak, Octordle — sakkizta so'z topish talab etiladi, Nerdle — Wordle o'xshash, faqat bunda matematik topshiriqlar bajariladi.

Xalqaro hayot

2022-YILDA 39 MINGGA YAQIN ROSSIALIK O'ZBEKISTONGA KO'CHIB O'TDI

Yil boshidan beri Rossiyani 419 ming kishi tark etgan. Bu haqda Rosstat ma'lum qildi.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning ushbu davrida 202 ming kishini tashkil etgan. Migratsiya oqimi 2021-yildagi 114 mingga oshgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 96 mingni tashkil etgan.



Rossiyadan MDH davlatlariga 368 ming kishi ko'chib o'tib, 294 ming kishi qaytgan. Jumladan, Ukraina (79,6 ming), Tojikiston (58,4 ming), Armaniston (49 ming), Qirg'iziston (43,6 ming), Qozog'iston (40,7 ming) va O'zbekistonga (38,6 ming) eng ko'p aholi jo'nab ketgan.

Shuningdek, MDH tarkibida bo'lmagan davlatlar orasida Xitoy (6,6 ming), Vetnam (5,4 ming) va Hindiston (4,1 ming) yetakchilik qilgan.

ELIZABET TRASS — BUYUK BRITANIYANING YANGI BOSH VAZIRI

Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri Elizabet Trass hukumat tepasidagi Konservativ partiya yetakchisiga aylandi. U 6 sentyabrdan amaldagi bosh vazir Boris Jonsonning o'rnini egalladi.


Partiya ichki ovoz berish jarayonida Trass partiya



a'zolarining 81 mingdan ortiq ovozini oldi. Uning raqibi — sobiq moliya vaziri Rishi Sunak 60,3 mingta ovoz to'pladi.

Elizabet Trass Britaniya tarixidagi 56-bosh vazir, qirolicha Yelizaveta II davridagi 15-bosh vazir bo'ldi. Trass hukumat tepasiga kelgan uchinchi ayoldir: ungacha Margaret Tetcher (1979–1990-yillarda hukumat rahbari) va Tereza Mey (2016–2019) Britaniyani boshqargan.

ARGENTINADA NOMA'LUM KASALLIK QURBONLARI KO'PAYMOQDA



Bir necha kun ichida Argentinaning Tukuman provinsiyasida ikkinchi odam kelib chiqishi nomal'um pnevmoniya tufayli vafot etdi, deb xabar berdi mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligi sayti.

Umuman olganda, 18-22 avgust kunlari kasalxonaning besh nafar xodimida va xususiy klinikada bir


bemorda kasallik holati aniqlangan.

"Oltita holatda ham gap ikki tomonlama pnevmoniya haqida ketyapti, ikkita bemor vafot etgan", deyiladi xabarda.

Uch kishi kasalxonaga yotqizilgan, yana bir kishi uyda, shifokorlar uning sog'lig'i yaxshi deb baholamoqda.

Bemorlar qayta sinovdan o'tkazildi va natijalar hafta oxirigacha kutilmoqda.

RIM PAPASI INSONIYAT UCHINCHI JAHON URUSHIGA KIRGANINI MA'LUM QILDI



Rim papasi insoniyat Uchinchi jahon urushiga kirganini e'lon qildi. Pontifikning bayonoti aks etgan videoni Vatican News nashri e'lon qildi.

"Ertaga siz Polsha xalqiga juda og'riqli ta'sir ko'rsatgan Ikkinchi jahon urushi boshlanganining 83 yilligini eslaysiz. Va bugun biz Uchinchisini boshdan kechirmoqdamiz. O'tgan tajribalar xotirasi sizni o'zingizda, oilangizda; ijtimoiy va xalqaro hayotda tinchlik o'rnatishga undasin", — dedi u.

Rim papasi, shuningdek, Vatikanda "tinchlikni kutish" kontekstida "ular Ukraina xalqi uchun alohida tarzda ibodat qilishlarini" aytdi.

TA'LIM TIZIMIDA YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISH MUHIM

Oliy ta'lim tizimining innovatsion rivojlantirishda, avvalambor, oliy o'quv yurtlarini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida o'rnini yuksaltirish yuzasidan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ularni faqatgina ta'lim dargohi emas, balki ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish, real hayotga yangi mahsulotlar, texnika va texnologiyalar barpo etuvchi muassasalar sifatida rivojlantirish, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi yoshlarni, olimlarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning mehnat natijalarini xalq xo'jaligiga keng joriy etish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimdir.

Oliy ta'limda talabalarga fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni yechishga jalb etib, innovatsion jarayonlar ishtirokchisiga aylantirish lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliy ta'lim dargohlarida ilmiy-innovatsion markazlar, tajriba-texnika va konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik jihozlarga ega zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonda yosh olimlar va iqtidorli talabalar ilmiy salohiyati, yangi g'oyalar va innovatsiyalarga ilmiy va amaliy ko'nikmalari oshadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol usullardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish va innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- birinchidan, mamlakatda oliy tizim va ilmiy muassasalar ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladigan asosiy maskandir;
- oliy ta'limda innovatsion g'oyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy va pedagogik kadrlar salohiyati mavjud;
- uchinchidan, xorijiy davlatlarning ta'lim tizimida innovatsiyalar bo'yicha tajribalarini keng o'rganish va mahalliy sharoitda joriy etish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Bu o'rinda, mening nazarimda, ikkita asosiy vazifani hal etish zarur:

birinchidan – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talabalariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart;

ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish" deb ta'kidlagan.

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish O'zbek



istonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishda, avvalambor, oliy o'quv yurtlarini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida o'rnini yuksaltirish yuzasidan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, Ularni faqatgina ta'lim dargohi emas, balki ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish, real hayotga yangi mahsulotlar, texnika va texnologiyalar barpo etuvchi muassasalar sifatida rivojlantirish, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi olimlarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning mehnat natijalarini xalq xo'jaligiga keng joriy etish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatlari bosqichga o'sib o'tishini ta'minlashda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini dialektik tarzda uyg'unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma'naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg'un tarzda rivojlantirishni yo'lga qo'yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma'naviyat bilan uyg'un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o'zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi.

Oliy ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun o'qituvchi va talabalar ongida yangicha tafakkurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, texnologik g'oyalarni shakllantirish lozim. Talabalar fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni yechishga jalb etib, innovatsion jarayonlar ishtirokchisiga aylantirish lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliygohlarda ilmiy-innovatsion markazlar, tajriba-texnika va konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik jihozlarga ega zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda yosh olimlar va iqtidorli talabalar ilmiy salohiyati, yangi g'oyalar va innovatsiyalarga ilmiy va amaliy ko'nikmalari oshadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalarga oid tushunchalarni o'rtoficha o'rganish orqali kelgusida mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlarda muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritish mumkin.

Zulfiya RO'ZIEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Samarqand filiali katta o'qituvchisi,
Abdug'afur HOTAMOV,
TATU Samarqand filiali matbuot kotibi

Mustaqillik... bu so'zning qadri naqadar baland, naqadar aziz!

Shukurki, bugun hur va ozod yurtda yashayapmiz, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, osuda va farovon hayoti kafolatlangan. Yurtimiz tinch, xonadonlarimiz fayzli.

Mamlakatimizda har bir sohada bo'lgani kabi yoshlarga oid davlat siyosati sohasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 25 avgustdagi "O'zbekiston yoshlar kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yildagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar masalalariga oid bir qator farmonlari va qarorlari hamda Hukumat qarorlari bunga yaqqol misoldir.

Bu borada "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida ham bir qator samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, kompaniyada faoliyat yuritayotgan yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni ezgu intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ular o'rtasida sog'lom ilmiy-ma'rifiy raqobat muhitini shakllantirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish va rivojlantirish maqsadida kompaniyaning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan 2022 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Mazkur dasturga muvofiq kompaniyada faol va iqtidorli yoshlarni aniqlash bo'yicha turli tanlovlar tashkil etish va o'tkazib turish an'ana tusiga aylanib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yillik bayramini ko'tarinki ruhda o'tkazish maqsadida kompaniyaning jiroiya apparatida hamda filiallarida faoliyat yuritayotgan yosh xodimlar o'rtasida "Bilimlar viktorinasi" tanlovi o'tkazildi.

Onlayn tarzda o'tkazilgan tanlovda kompaniyada faoliyat yuritayotgan 700 nafardan ziyod yoshlar faol ishtirok etdilar.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rin "O'zbektelekom" AK Xorazm filialida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha muhandisi lavozimida faoliyat olib borayotgan Timur Niyazmetovga, 2-o'rin "O'zbektelekom" AK Ferg'ona filiali keng polosali xizmatlar bo'yicha joylarga chiqib texnik yordam ko'rsatish guruhi boshlig'i Alisher Botirovga hamda 3-o'rin "O'zbektelekom" AK xaridlarni boshqarish markazi filiali tashqi savdo operatsiyalarini muvofiqlashtirish va logistika xizmati 2-toifali mutaxassisi Madinabonu Zufarovaga nasib etdi.

"Bilimlar viktorinasi" tanlovi g'oliblariga kompaniyaning esdalik sovg'alari topshirildi.

E'LONI

■ Mirxalil Zaxidovich Nurmatovga 2013-yil 30-sentyabr kuni Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turli harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish Departamenti tomonidan berilgan O'zRN#004734 raqamli "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish uchun" guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

■ O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2021 yil 10 dekabrdagi 188-f-sonli farmoyishiga asosan "Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi" jamoat fondi hisob raqamiga 2022 yil 31 avgustda "O'zbektelekom" AK tomonidan 50 000,0 ming so'm hamda "Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi" DUK tomonidan 10 000,0 ming so'm homiylik pullari kelib tushdi. Mazkur mablag'lar "Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi" jamoat fondi hamda Aloqa tarixi muzeyining 2022 yil uchun tasdiqlangan smeta xarajatlariga yo'naltiriladi.

DASTYOR PLATFORMALAR



PAROLLARINI HIMOYA QILISH

Agar parollaringiz o'g'irlanishidan xavotirda bo'lsangiz, ularni faqat miyangizda saqlaganingiz ma'qul. Ammo xotirangiz pand bersa, unda parol menejeridan foydalanish eng qulaydir.

Dashlane (www.dashlane.com) — parollarni saqlay oladi, yoqimli ko'rinishga, yaxshi funksionallikka va foydalanish qulayligiga ega. Bu yerda parol ma'lumotlar bazasi bulutda shifrlangan shaklda saqlanadi, mijozlar o'rtasida turli platformalar (Mac, windows, ios va Android) uchun sinxronizatsiya mavjud.

Ushbu parol menejerini o'rnatish va ishlatish oson va u Chrome, Firefox, Safari va Edge brauzerlari uchun kengaytmalarga ega. Bepul versiyasida 50 tagacha parolni saqlashingiz mumkin.

ONLAYN RUBIK KUBINI YIG'ISH

Siz internetda turli qiziqarli imkoniyatlarni yaratishingiz mumkin. Raqamli dunyoda klassik o'yinlar va jumboqlar ba'zan yangi xususiyatlarga ega bo'ladi. Xuddi shu narsani Rubik kubining yig'ilishi haqida ham aytish mumkin.

Rubik Cube Explorer (iamthecu.be) - bu Rubik kubini yig'ishga imkon beradigan veb-sayt. Raqamli versiyada siz hayotdagi kabi to'plashingiz kerak, faqat hamma narsa bepul va siz sichqoncha bilan yoki displeyga tegib qirralarni aylantirasiz.

Siz nostaqart shaklni tanlashingiz mumkin, har bir kvadratning shaffofligini sozlashingiz mumkin, har bir segmentni raqamlashingiz mumkin. Saytda avtomatik yig'ish tugmasi mavjud, buning yordamida siz Rubik kubini qanday yig'ishni o'rganishingiz mumkin.

QANDAY QILIB TEZ YOZISHNI O'RGANISH MUMKIN

Keybr (www.keybr.com) - tez yozish uchun smart simulyator. Bunday simulyatorlarning g'oyasi yangi emas, ammo ishlab chiquvchilar raqobatchilaridan biroz ilgari lab ketishdi. Sun'iy intellekt sizning xatolaringizni, tezlik va aniqlik statistikasini tahlil qiladi va keyingi darslarda uni tuzatadi.

Asosiy e'tibor tilda eng ko'p uchraydigan so'zlarning ketma-ketliklari, qismlari majmuasiga qaratiladi. Buning yordamida mushaklarning xotirasi pianino chalayotgan musiqachining barmoqlariga o'xshash tarzda mashq qilinadi.

Simulyator oltilta tilni qo'llab-quvvatlaydi va brauzer oynasini ro'yxatdan o'tkazmagan bo'lsangiz ham aktualikni saqlaydi. Siz tilni "Sozlamalar" bo'limida o'zgartirishingiz mumkin.

INGLIZCHA MATNDA XATOLARNI QANDAY TOPISH MUMKIN

Siz o'zingizning matningizni ingliz tilida so'z yoki Google translator orqali ishlatib tekshirasiz. Bu xatolarni aniqlash va ularni darhol tuzatishning yaxshi usuli, ammo yaxshiroq variant ham mavjud.

Grammarly (www.grammarly.com) - bu barcha grammatik, kontekstli imlo xatolarini va so'z birikmalaridan noto'g'ri foydalanishni tozalaydigan ixtisoslashgan korrektor.

Lekin bu hammasi emas. **Grammarly** matnda plagiatsni topishga qodir, shuningdek, sizning satrlaringizni ma'lum bir yozish uslubi (akademik, biznes, suhbat yoki badiiy)ga moslashtirishga yordam beradi.

SPORT

OMAD "YAYPAN - NAVBAHOR"ga KULIB BOQDI

"O'zbekiston pochta" AJ farg'ona filiali rahbariyati hamda boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" g'oyasini o'zida mujassam etgan ma'naviy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish, sportni rivojlantirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib kelmoqda.



Yaqinda filial mini futbol jamoalari o'rtasida musobaqani tashkil etish maqsadida "Afrosiyob. Tarix va kelajak" MChJ hamda "Farg'ona Turon invest" MChJ bilan shartnoma tuzildi. Avvalo, shuni e'tirof etish kerakki, sohaga oson kechmayotgan so'nggi yillarda ham pochta aloqa bog'lamalari o'rtasidagi mini futbol bo'yicha turnirlar doimiy tashkil etilmoqda. G'oliblar baholi qudrat pul mukofoti bilan rag'batlantirilmoqda.

Mini futbol turnirida "Quva-Quvasoy", "Yaypan-Navbahor", "Vodil", "Bag'dod", "Beshariq", "Filial", "Yangiqo'rg'on-Uchkoprik" jamoalari bellashdilar. O'yin qizg'in bahslar ostida kechdi. "Xurshidjonga gap yo'q", "Husanjon, barakalla. Zo'r", "O, yana golni Muzaffarjon urdi. Otangga rahmat!" Tez-tez shu olqishlar yangrab turdi. Sportdan yiroq odam ham maydonda to'p surayotganlarga qarab, faqat munosiblariga omad kulib boqsini, deb tilak tilaydi. Shuning uchun ham sport sportda!

Musobaqada "Bag'dod" jamoasi 3-o'rin, "Filial" jamoasi 2-o'rinni oldi. Omad "Yaypan-Navbahor" jamoasiga kulib boqdi. Ular "Filial" jamoasini dog'da qoldirdi. Hisob 8-2.

Eng faol minifutbolchilardan Navbahor (Furqat) pochta aloqasi bog'lamasi boshlig'i o'rinbosari Xurshidjon Mehmonaliev, Yaypan pochta aloqasi bog'lamasi bosh buxgalteri Muzaffar Mamajonov hamda Yaypan PAB Do'ngsaroy pochta aloqasi bo'limi boshlig'i Husanjon Hasanovlarning o'yinlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

— Albatta, inson salomatligida jismoniy tarbiya, sport juda ham muhim o'rin tutadi. Hayotimizning ajralmas qismi, — deydi Xurshidjon Mehmonaliev. — Jismoniy mashqlar tufayli yo'qolib borayotgan sog'lig'ini tiklaganlarni bilaman. Sportga qiziqib qolib, ruhiy tushkunlikdan chiqqanlar bor. Stresslar va kasalliklarning oldini olishda, immunitetni mustahkamlashda eng a'lo "dori" ham, meningcha — sport!

Turnir yakunida filial direktori Alijon Ibragimov g'oliblarga 1, 2, 3-darajali diplomlarni topshirdi.

S.HAFIZOVA

Xabar

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

Bosh muharrir:

Abdug'ani ABDURAHMONOV

Tahrir Hay'ati:

Sherzod SHERMATOV (Hay'at raisi), Nazirjon HASANOV, Kommuna IRISBEKOVA, Alisher FAYZULLAYEV, Lutfullo TURSUNOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Usmonjon YO'LDOSHEV (Mas'ul kotib).

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egaloriga qaytarilmaydi. Muallifning fikrlari tahririyat fikridan farqlanishi mumkin. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda "Xabar" dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Gazeta sahifalarini tayyorlashda internet materiallaridan ham foydalanildi. Bahosi kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100000 Toshkent shahri, Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy (Mo'ljal Oloy bozori).
Telefonlar: 71-234-18-59, 71-234-18-31.
Faks: 71-234-17-91. E-mail: info@xabar.uz

Obuna indeksi — 228.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. Dizayner: Asliddin BO'RIYEV. Navbatchi: Muhiddin SOLIYEV.



Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 0016 raqami bilan 2013-yil 23-iyulda ro'yxatga olingan.

Gazeta haftaning juma kuni chiqadi

Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi 41-uy.

1-959 sonli buyurtma. Ofset usulida bosildi. Oq'oz bichimi A-3, hajmi 2 bosma taqoq. **Adadi:** 2989

ISSN 2010-6424

Bosishga topshirildi — 17 °°
Bosishga topshirish vaqti — 24 °°

Viloyat muxbirlari:

Andijonda (74) 226-47-80

Buxoroda (99)854-7305

Jizzaxda (94) 199-95-64

Namanganda (91) 353-71-25

Navoiyda (79) 225-91-10

Nukusda 554-35-45

Samarqandda (91)557-84-44

Termizda (99)508-30-52

Toshkentda 234-18-59

Urganchda (97) 211-65-05

Farg'onada (73) 244-18-05

Qarshida (93)931-08-99